

**SHAXSNING PSIXOLOGIYASI**

**Nurova Marhabo Abdullo qizi**

*Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti talabasi*

Email: [nurovamarhabo249@gmail.com](mailto:nurovamarhabo249@gmail.com)

**Annotation.** Inson psixikasi sirlarga boy dunyo bo‘lib, uning chuqurliklarini o‘rganish bizni o‘zligimizni va atrofimizdagi odamlarni chuqurroq tushunishga olib boradi. Ushbu maqola inson shaxsining murakkab tuzilishini, uning rivojlanish bosqichlarini, motivatsiya mexanizmlarini va ijtimoiy munosabatlarga ta’sirini tahlil qiladi. Zamonaviy psixologiya yutuqlaridan foydalaniib, biz shaxsning shakllanishiga ta’sir etuvchi genetika, atrof-muhit va shaxsiy tajribalar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirni ko‘rib chiqamiz. Maqola shuningdek, shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, shaxsiy o‘sish va psixologik salomatlikni saqlashga oid amaliy tavsiyalarni ham taqdim etadi. Ushbu tadqiqot o‘quvchilarga inson psixikasi haqida qimmatli bilimlarni o‘rganishga va o‘z-o‘zini anglash darajasini oshirishga yordam beradi.

**Kalit so‘zlar:** shaxs, individ, individuallik psixologiya, ong, xususiyat, faoliyat

**Аннотация:** Человеческая психика — это мир, полный загадок, и исследование его глубин ведет нас к более глубокому пониманию себя и окружающих нас людей. В данной статье анализируется сложная структура человеческой личности, этапы ее развития, мотивационные механизмы и ее влияние на социальные отношения. Используя достижения современной психологии, мы изучаем сложные взаимодействия между генетикой, окружающей средой и личным опытом, которые формируют личность. Также в статье даются практические советы по выявлению особенностей личности, личностному росту и сохранению психологического здоровья. Это исследование помогает студентам получить ценные знания о человеческой психике и повысить свое самосознание.

**Ключевые слова:** человек, индивидуум, индивидуальность, психология, разум, характер, деятельность.

**Abstract.** The human psyche is a world full of mysteries, and exploring its depths leads us to a deeper understanding of ourselves and the people around us. This article analyzes the complex structure of the human personality, its stages of development, motivational mechanisms, and its impact on social relationships. Using the achievements of modern psychology, we will consider the complex interaction between genetics, the environment, and personal experiences that influence the formation of personality. The article also provides practical recommendations for identifying the unique characteristics of a person, personal growth, and maintaining

psychological health. This study will help readers learn valuable knowledge about the human psyche and increase their level of self-awareness.

**Keywords:** personality, individual, individuality psychology, consciousness, trait, activity

**Kirish.** Psixologiya fanida inson zotiga xoslik, ya'ni individ masalasi (lotincha individ ajralmas, alohida zot degan ma'noni anglatadi) shaxs, individuallik tushunchalari orqali aks ettiriladi. Inson dunyoga individ sifatida keladi. Individ deganda biz odamning insonlik jinsiga mansubligini tushunamiz. Individga yangi tug'ilgan chaqaloq ham, katta yoshdagilar ham, til va oddiy malakalarni egallay olmaydigan telbalar ham kiradi. Lekin ulardan ijtimoiy munosabatlarga qatnashuvchi, jamiyatda ijtimoiy taraqqiyotda faol ishtirok etuvchi odamgina shaxs deb ataladi. Shaxsning uch asosiy belgisi bor:

1. Shaxsning ijtimoiyligi.
2. Ongi.
3. O'zini anglashi.

Individ sifatida dunyoga kelgan chaqaloq ijtimoiy munosabatlar tizimiga duch keladi va ijtimoiy tajribalarni atrof-muhitdagi kishilar bilan bo'lgan munosabatlarda egallay boshlaydi. Unda narsa va hodisalarga, atrofdagi kishilarga bo'lgan munosabatlarda faollik paydo bo'ladi. Ijtimoiy muhit bilan organizm orasidagi qaramaqarshiliklar jiddiylashadi va ularga moslashish, yengish jarayonida faollik kuchayadi. Faollik shaxsga xarakterli bo'lgan xulq-atvor motivlarida, amal-usullarida keyinchalik bolani tevarak-atrofdagi voqelikni o'zgartirishga qaratilgan turli-tuman faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Odamga ta'sir qilayotgan hamma tashqi ta'sirlar ijtimoiy shart-sharoitlar tizimi yoki faoliyatning ichki sharoitlari bilan o'zgartiriladi va shaxs shakllana boshlaydi. Jamiyatdan tashqarida odam odam bo'lolmaydi va kishilar o'rtaсидаги ijtimoiy aloqa ularning amaliy faoliyatidagi, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi munosabati bilan belgilanadi. Odam boshqa kishilarga munosabatda bo'lish tufayligina ongliroq bo'lib qoladi va uning psixik hayoti muayyan mazmunga ega bo'ladi. Ana shu munosabatlar nechog'li mazmundor va rang-barang bo'lsa, odamning psixik hayoti ham shunchalik mazmundor va rang-barang bo'ladi. Odam ongingin yuksak belgisi -uning o'zini anglashidir, odamning o'zini anglashi ham shaxsnin muhim belgisidir. Shaxsni ng o'zini anglashi shundan iboratki, odam jamiyatda taraqqiy etar va ishlar ekan, tevarak-atrofdagi muhitda o'zining individligini, subyektligini ajratadi. Odam tevarak-atrofdagi olamni biluvchi va shu dunyoga ta'sir etuvchi zot sifatida har bir odam subyektdir, odamning idrok etadigan, tasavvur qiladigan, fikr yuritadigan, tilga oladigan va ta'sir ko'rsatadigan narsasi uning uchun obyektdir. Odamning o'zini anglashi subyektiv ravishda o'zini «men» deb his qilishida ifodalanadi. Odam ijtimoiy zot bo'lganligidan unga o'zini anglash qobiliyati xosdir.

Ammo odam jamiyatning bir a'zosi va olamning bir qismidir, shu sababli odam tevarak-atrofidagi olamdan ajratsa ham, ayni vaqtda shu olam bilan bog'langanligini anglaydi. Odam o'z tevarak-atrofidagi olamdan o'zini ajralgan holda o'zini «men» deb anglay olmaydi, chunki odam ongining, o'zini anglashining, «men»ining mazmuni o'sha odam atrofidagi real-voqelik in'ikosidir.

Shaxsning o'zini anglashi shunda ifodalanadiki, odam tevarak-atrofdagi olamda o'zini ajratish bilan bir vaqtda, o'zining shu olamga uzviy ravishda bog'langanligini anglaydi, o'ziga, o'z faoliyatiga va o'z vazifalariga anglab-bilib munosabatda bo'ladi. Shaxsning o'zini anglashi, «men» deb his qilishi hamisha muayyan mazmuni bilan yuzaga chiqadi. O'zining borligini anglashi, odamning o'zini kim deb bilishi - o'quvchi, ishchi, o'qituvchi, muhandis va shunga o'xshash deb anglashi, o'zining o'tmishini va kelajagini anglashi, boshqa kishilar bilan o'zaro munosabatini anglashi, o'z huquq va burchlarini anglashi, o'zining fazilat va kamchiliklarini va shunga o'xshashlarni anglashi o'zini anglashga kiradi. Shaxs o'zini anglaganligidan o'zinio'zi kuzata oladi va o'zini-o' zi bilib oladi, ko'nglidan o'tgan kechinmalarni tushuna oladi, o'zining xatti-harakatlariga o'zi tanqidiy ko'z bilan qaray oladi. Shaxsning o'zini anglashi va o'zini bilishi o'z xulq-atvorini boshqarish uchun zarur shartdir, o'zini-o'zi tarbiyalash uchun o'z aqlini o'zi o'stirishi uchun zarur shartdir. Inson shaxsining eng xarakterli tomonlaridan biri uning individualligidir. Individuallik shaxs xususiyatlarini boshqa bir kishida qaytarilmasligidir. Uning tarkibiga xarakter, temperament, qobiliyat, qiziqish kabilar kiradi. Ikkita bir-biriga xarakter, temperament, qobiliyat va boshqa xususiyatlari aynan o'xshagan kishini topib bo'lmaydi. Inson shaxsi o'zining individualligi bilan qaytarilmasdir. U o'zining qadr-qiymati va xususiyatlari bilan jamiyat hayotida faol qatnashganligi hamda ta'lim-tarbiya jarayonida yuzaga kelgan xislatlari bilan paydo bo'lgan aniq tirik odamdir. Odam jamiyatda turli-tuman vazifalarni bajaradi va har turli vaziyatlarda o'xshash sifatlarni namoyon qiladi. Shaxsning turli faoliyatlarda (o'yin, mehnat, o'qish, shuningdek oila va maktab, ish joyida) turlicha namoyon qilgan xislatlari bir-biriga mos keladi va u shaxsning yaxlitligini ko'rsatadi. Bizning mamlakatimizda inson shaxsiga beriladigan tavsifnomada uning mustaqillikni mustahkamlash jarayoniga bo'lgan munosabati va bu jarayonda qanday qatnashishi bilan belgilanadi. Demak, shaxsning psixologik tuzilishi, psixologik xususiyatlari, aql sifatlari birikmasi odamda barqaror birlikni tashkil etadi. Bu esa shaxs psixologik tuzilishining doimiyligidir. Shaxsning psixik tuzilishini o'zgarishi uning yashash sharaiti, faoliyatida yuzaga keladigan o'zgarish natijasi bo'lib, u ijtimoiy ta'lim-tarbiya bilan bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida shaxsga bevosita tegishli bo'lgan so'zlar va iboralar quyidagilarni o'z ichiga oladi.

\* Shaxsning huquqlari va erkinliklari: Qonunda ta'lim olish huquqi, ta'limni erkin tanlash huquqi, ta'limdan teng imkoniyatlarga ega bo'lish huquqi kabi shaxsning fundamental huquqlari ta'kidlanadi.

\* Shaxsning rivojlanishi: Ta'lim jarayoni shaxsning har tomonlama rivojlanishiga, uning intellektual, ma'naviy, jismoniy va ijtimoiy salohiyatini ro'yobga chiqarishiga qaratilganligi ta'kidlanadi.

\* Shaxsning qobiliyatları: Ta'lim tizimi shaxsning individual qobiliyatlarini hisobga olish va ularni rivojlantirishga qaratilgan.

\* Shaxsning manfaatlari: Ta'lim jarayoni shaxsning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan.

\* Shaxsning mustaqilligi: Ta'lim jarayoni shaxsning mustaqil fikrlashini, tanqidiy qarashini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

\* Shaxsning ijtimoiylashuvi: Ta'lim jarayoni shaxsning jamiyatga moslashuvchan, ijtimoiylashuvchan bo'lishini ta'minlaydi. Shaxsning muhim belgisi faqat odamga xos maxsus ehtiyojlamining borligidir. Ehtiyojlar odamning kun ko'rishi va yashashi uchun zarur narsalardir. Odam yashamoq, kun kechirmoq uchun o'z ehtiyojlarini qondirishi kerak. Ehtiyojlar hayvonlarda ham bor. Ammo hayvonlarda faqat biologik, tug'ma ehtiyojlar bo'ladi - ovqatlanish, saqlanish, nasI qoldirish ehtiyojlaribor, xolos. Odamda esa biologik ehtiyojlardan tashqari, yana yuksak ehtiyojlar - bilish ehtiyojlar, ijtimoiy ehtiyojlar, ma'naviy, estetik va boshqa shu kabi ehtiyojlar bor.

Bu ehtiyojlar tug'ma ehtiyojlar emasular tarixan taraqqiy etgan. Ijtimoiy zot bo'lgan odamning biologik ehtiyojlarini ham tarixiy taraqqiyot jarayonida sifat jihatdan o'zgargan. Kishilarning ehtiyojlarini ijtimoiy tuzum shakllarining taraqqiysiga qarab o'zgaradi. Har bir ayrim odamning ehtiyojlarini ijtimoiy muhit, tarbiya va tajribasiga qarab taraqqiy etadi. Ehtiyojni qondirish jarayoni hayotning muhim bir tomonini tashkil etadi. Odam yuksak darajadagi ma'naviy ehtiyojlarini borligi bilangina emas, balki o'zining ehtiyojlarini (shu jumladan, biologik ehtiyojlarini ham) anglashi bilan ham hayvonlardan farq qiladi. Ehtiyojlar odamni g'ayratga kirdizadi, uning faoliyatini hamma turlariga dalda beradi.

**Xulosa:** Shaxsning psixologiyasi insonning ichki dunyosi, xulq-atvori va bir-biriga bog'liqliklarini o'rganish orqali uning individual hayotini tushunishga yordam beradi. Har bir shaxs o'z tajribalaridan kelib chiqib, ularni shakllantiradi. Ushbu psixologik perspektivlar orqali biz insonlarning motivlari, emotsiyalari va ijtimoiy aloqalari haqida yanada chuqurroq tushuncha hosil qilamiz. Shaxsiy rivojlanish va o'z-o'zini anglash jarayonlari esa sog'gom psixologik holatni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi „ta'lim to'g'risidagi qonun”i. 23.09.2020.O'RQ 637-son

2. Kasb-hunar kollejlari uchun Beshinchi nashr. „O‘qituvchi” Nashriyot- matbaa uyi.Toshkent-2012
3. M. E. ZUFAROVA UMUMIY PSIXOLOGIYA O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'qituvchi va o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. „O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLiY JAMIYATI NASHRIYOTI” TOSHKENT - 2010

